

YALPI HUDUDIIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabrda Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 30 382,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 3,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 108,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,8 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	I. YAHM	27 156,3	30 382,7	103,1
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 818,2	29 566,6	103,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 338,1	816,1	103,2
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 818,2	29 566,6	103,1
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10 572,0	12 685,5	103,3
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 573,1	7 642,1	98,0
	sanoat	6 134,5	5 849,7	95,0
	qurilish	1 438,6	1 792,4	111,0

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	Xizmatlar	7 673,1	9 239,0	107,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 643,3	2 031,2	110,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 391,6	1 691,0	111,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 638,2	5 516,8	105,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 457,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 42,9 % ni, sanoat tarmog'i 19,8 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 31,2 % ni tashkil qildi.




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,1	97,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,9	2,7
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40,9	42,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	29,4	25,9
	sanoat	23,8	19,8
	qurilish	5,6	6,1
	Xizmatlar	29,7	31,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,4	6,9
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	5,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	17,9	18,6




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2020- yil





2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 42,9 %), sanoatda – 95,0 % (19,8 %), qurilishda – 111,0 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 107,8 % ni (31,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,7 % (6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,3 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,7 % dan (18,6 %) iborat bo'ldi.




2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 1,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,4 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi *(jamiga nisbatan % da)*



2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 108,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 116,1 % va qurilish tarmog'ida – 112,3 % qayd etildi.



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi (YaQQga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 73,3 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida – 68,8 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.